

GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA TALABALARNING HUQUQIY BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Xoliqova Mahbuba Orifjonovna

Navoiy davlat universiteti v.b dotsenti

Karimberdiyeva Laylo Fayzulla qizi

Navoiy davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada Vatanimizning kelgusi istiqboli uchun bilimli, ma'naviy yetuk avlodlarni tarbiyalash, olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ekanligi, shu sababdan geografiya fanlarini o'qitilishi talabalarning hudud haqidagi tasavvurlarini kengayishiga, yurtimizdagi geografik jarayonlar, me'moriy obidalar, arxeologik ob'yektlar, voqea va hodisalar, tabiat haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularning konstitutsiyaviy bilimlarini oshishiga ham xizmat qilishiga oid ma'lumotlar va geografiya fanlari bilan huquqiy fanlar orasida uzviy bog'liqlik borligini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildik.

Tayanch tushunchalar. O'lkashunoslik, monumental san'at yodgorliklari, adabiy traditsiya, YUNESKO tashkiloti, Demografiya asoslari.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПРАВОВЫХ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ГЕОГРАФИИ

Холикова Махбуба Орифжоновна

И.о. доцента Навоийского государственного университета

Каримбердиева Лейла Файзулла кызы

Студент Навоийского государственного университета

Аннотация. В статье подчеркивается, что воспитание образованного, духовно зрелого поколения для будущего нашей Родины является основной целью проводимых реформ, поэтому преподавание географических дисциплин не только способствует расширению представления студентов о местности, но и обогащает их знания о географических процессах, архитектурных памятниках, археологических объектах, событиях и явлениях, природе в нашей стране, мы попытались научно обосновать, что существует неразрывная связь между географическими науками и юридическими

науками, с информацией, которая также служит повышению их конституционных знаний.

Ключевые слова. Местная история, памятники монументального искусства, литературная традиция, организация ЮНЕСКО, Основы демографии.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF STUDENTS' LEGAL KNOWLEDGE IN TEACHING GEOGRAPHY

Kholikova Makhbuba Orifjonovna

Associate Professor of Navoi State University

Karimberdieva Leyla Fayzulla qizi

Student of Navoi State University

Abstract

The article emphasizes that the education of an educated, spiritually mature generation for the future of our Homeland is the main goal of the ongoing reforms, therefore, teaching geographical disciplines not only helps to expand students' understanding of the area, but also enriches their knowledge of geographical processes, architectural monuments, archaeological sites, events and phenomena, nature in our country, we they tried to scientifically substantiate that there is an inextricable link between geographical sciences and legal sciences, with information, which also serves to enhance their constitutional knowledge.

Keywords. Local history, monumental art monuments, literary tradition, UNESCO organization, Fundamentals of demography.

Respublikamizda ta'lim sohasida juda ko'p islohotlar va talimga oid turli yangiliklar yaratilmoqda. Vatanimizning kelgusi istiqboli uchun hissa qo'shadigan bilimli, ma'naviy yetuk, teran fikrlay oladigan avlodlarni tarbiyalash olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadidir. Bunday yoshlarni tarbiyalash Oliy talimda faoliyat olib borayotgan proffessor-o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Har bir o'qituvchi ushbu mas'uliyatli vazifani bajarar ekan, o'z fanini o'qitish jarayonida talabalarni zamon bilan hamnafas bo'lib yashashlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berishga harakat qiladi, hamda ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori sifat samaradorlikka erishishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi davrda Respublikamiz hududidagi barcha Oliy ta'limda yo'nalishlarida o'qitilayotgan o'quv fanlari o'zaro bir-biri bilan bog'liqlikda, integratsiya tarzida o'qitilmoqda. Bu borada, geografiya fanlari orasida O'lkashunoslik va O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanlarini o'qitilishi talabalarning hudud haqidagi tasavvurlarini kengayishiga, yurtimizdagi geografik jarayonlar, me'moriy obidalar, arxeologik ob'ektlar, tarixiy shahristonlar, monumental san'at yodgorliklari voqea va hodisalarni, tabiat haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qilishi bilan bir qatorda ularning konstitutsiyaviy bilimlarini oshishiga ham xizmat qiladi. Sababi, Mamlakatimiz hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaro avvalo vatan oldidagi burchi, tabiat oldidagi burch va majburiyatlarini bilishlari hamda ularga amal qilishlari kerak bo'ladi. Ushbu majburiyatlar va burchning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, balki geografiya ta'limida ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'lumki Oliy talimda tahsil olayotgan barcha talabalar Respublikamiz maydoni, uning chegaralari, yer osti va yer usti boyliklari, tabiati, ularni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish haqidagi ilk ma'lumotlarni talim olgan umumtalim maktablarida O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (8-sinf geografiyasi) fanida o'rganadilar. Tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish prinsiplari ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Davlat tashkilotlarining bu sohadagi faoliyati ham Konstitutsiyada belgilangan.

Navoiy Davlat Universitetining Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari talim yo'nalishi III-kurs talabalariga O'lkashunoslik fani Geografiya kafedrasida o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi. Fan mavzularini o'qitish jarayonida "O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan muzeylar" mavzusini o'qitishda talabalarga mamlakatimiz Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan moddalardan foydalangan holda mavzuni o'qitish samaraliroq bo'ladi. Chunki O'zbekiston hududida yashayotgan har bir shaxs avvalo vatan oldidagi burchi va majburiyatlarini bilishlari hamda ularga amal qilishlari kerak bo'ladi.

O'lka yoki joyning san'atini hamda xalq hunarmandchiligini o'rganish umumiy o'lkashunoslikni ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. San'at

yodgorliklarida mamlakatning zamonaviy va qadimiy tarixi aks etgan bo‘ladi. O‘zbekistonning har bir o‘lkasi o‘zbek adabiyoti tarixi bilan chambarchas bog‘langan. Har bir o‘lka yoki joy o‘z adabiy traditsiyasiga, yodgorliklariga va muzeylariga ega.

Hozirgacha yetib kelgan tarixiy yodgorliklar va yozma manbalar diyorimizda uzoq moziyda, ayniqsa, o‘rta asrlarda ilm-fan, madaniyat gullab-yashnaganidan darak beradi. “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun asosida mamlakatimizda ko‘plab madaniy meros ob’ektlari davlat muhofazasiga olindi. Jahon sivilizatsiyasida katta o‘rin tutgan me’moriy obidalar, arxeologik ob’ektlar, tarixiy shahristonlar, monumental san’at yodgorliklarini o‘rganish, hisobga olish, asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazishga yo‘naltirilgan ishlar belgilandi. Tarixiy, madaniy va ma’naviy merosimizni o‘rganish, ilmiy xulosalar berish bo‘yicha bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston olimlari shug‘ullanayotgani, balki bunga xorijlik ekspertlar katta qiziqish bildirayotgani ham diqqatga sazovor. Jumladan, ular tashkil qilinayotgan ko‘plab ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etishmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan tarixiy obidalarni saqlab qolishga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari va Respublikamizning boshqa hududlaridagi bir qancha madaniy meros ob’ektlari YuNESKO tashkiloti tomonidan ro‘yxatga olinib, muhofaza qilinadi.

Sharq mutafakkirlarining dunyo tamadduniga qo‘shgan salmoqli hissasining jahon miqyosida tan olinishi ko‘p narsani anglatadi. Farovon zaminimizda yashab o‘tgan jahonga mashhur allomalarimiz o‘zlarining chuqur dunyoqarashi, izlanishlari, bebaho ixtirolari bilan tarixda o‘chmas iz qoldirishgan. Ya’ni Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan, Sharq va G‘arbni mustahkam bog‘lab turgan, qadim va betakror yurtimiz azaldan taniqli ilm-fan namoyondalari bilan do‘vruq qozongan. Ularning tarix, adabiyot, san’at, falsafa, tibbiyot, matematika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilik, pedagogika kabi sohalardagi asarlari nafaqat xalqimizning, balki butun insoniyatning bebaho boyligidir. Prezidentimiz tomonidan aytib o‘tilganidek, “Bunday boy merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda

kamdan-kam topiladi". Buyuk ajdodlarimizning ulkan ilmiy kashfiyotlari yana ming yillar davomida farzandlarimizning barkamol avlod sifatida voyaga yetishida muhim ma'no-mazmun kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi 7000 dan ortiq madaniy meros durdonalari, minglab arxeologik ob'ektlar va topilmalar, qazilmalar buni yaqqol isbotlab beradi. Ular qadim tarixdagi madaniy hayot, ajdodlarimiz turmush tarzini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda ana shu yodgorliklarni qayta tiklash, ta'mirlash, restavratsiya qilish, arxeologik izlanishlar olib borish ishlarini qo'llab-quvvatlash, yangi muzeylar barpo etishga katta e'tibor qaratilyapti. Buning uchun mamlakatimizda zarur tashkiliy-huquqiy poydevor yaratildi. Eng avvalo, Konstitutsiyamizning 49-moddasida fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburligi, madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasida ekanligi belgilab qo'yilgan.

Tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, adabiyot, tasviriy va [amaliy san'at](#) asarlari, arxeologik topilmalar, milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan majmualar Davlat tomonidan muxofaza etiladi. O'zbekistonda yodgorliklarni muhofaza etish, asosan, XX-asrning 20-yillaridan boshlangan. Hozir [O'zbekiston Respublikasi](#) Madaniyat ishlari vazirligi huzuridagi Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi shug'ullanmoqda. Respublika hududida va chet mamlakatlarda saqlanayotgan noyob qo'lyozmalar, madaniy, tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodi namunalari, san'at va badiiy asarlar, teatr musiqa, qadimgi davlatchilik tarixiga oid hujjatlar, qadimgi cholg'u asboblari yig'ish, saklash va boshqalar bilan shug'ullanish maqsadida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi tuzilgan (1999 y. 12 okt.). Vazirlar Mahkamasining 4.10.2019 yildagi 846-son qarori bilan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxati tasdiqlangan. Respublikada moddiy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari jami soni 8208 ta bo'lib, shundan 4748 ta arxeologiya yodgorliklari, 2 250 ta arxitektura yodgorliklari, 678 ta monumental san'at yodgorliklari, 532 ta diqqatga sazovor

joylar. Mazkur ob'yektlarning 7123 tasi davlat mulki va 353 tasi xususiy mulk hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarni buzgan shaxslar ma'muriy, moddiy va jinoiy javobgarlikka tortilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasida Respublikamizning chegarasi va xududi daxlsiz va bo'linmasligi ta'kidlab o'tilgan.

Ma'lumki, mamlakatimizdagi demografik holat, uning aholisi, urbanizatsiya darajasi, Respublikamiz hududida istiqomat qilayotgan millat va elatlar haqidagi ma'lumotlar Oliy talimda ham boshqa ayrim fanlar qatori Demografiya asoslari fanida o'qitiladi.

Bizning mamlakatimizda, 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Konstitutsiyamizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar" deyilgan.

Respublikamiz Konstitutsiyasida tabiatdan foydalanish va tabiiy resurslardan foydalanish masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. Tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, avvalo, tabiat qonunlarini tadqiq qilish va ularga qat'iy amal qilishni taqozo etadi. Geografiya fanining o'qitilishida tabiat bilan jamiyatning uzviy aloqalari, ular o'rtasidagi nomutanosibliklar, tabiiy boyliklarning insonlar hayotidagi ahamiyati, tabiatdan noto'g'ri foydalanishning salbiy oqibatlari ham chuqur o'rganiladi. Bu holatlar ham Konstitutsiyamizda qonuniy kuchga keltirilgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 50 moddasida fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur ekanliklari ta'kidlab o'tilgan.

Tabiiy resurslar-insonlarning yashashi uchun asosiy vosita hisoblanib, inson o'zi uchun zarur bo'lgan barcha ne'matlarini tabiatdan oladi va tabiiy resurslarsiz o'z faoliyatini amalga oshira olmaydi. Bu borada Respublikamiz o'z taraqqiyoti va istiqbolini oldindan uzoq muddatga mo'ljallay oladigan va tabiiy resurslardan o'zi belgilagan maqsadi yo'lida foydalanish imkoniga ega bo'lgan jamiyatga

aylanmoqda va tabiatdan oqilona foydalanmoqda deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Buning yaqqol misoli sifatida Konstitutsiyamizning 55-moddasida “Er, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir” deb ta’kidlanganligini keltirishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu moddada keltirilgan tabiat unsurlari cheklanganligini va shuning uchun ulardan oqilona foydalanish masalalari ham qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan.

Demak geografiya darslarini tashkil etishda Respublikamiz haqida ma’lumot berilishi bilan birga ushbu ma’lumotlarning qonuniy kuchga kiritilgan holatini ham ta’kidlab o‘tilishi o‘quvchilarning tayanch bilimlarga ega bo‘lishiga olib keladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Oliy ta’lim muassalarida tahsil olayotgan talabalar o‘quv fanlari bilan integratsiya tarzida Konstitutsiyaviy bilimlarni egallashi tabiiy va iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarga baho berishi, ularning dunyoqarashlarini kengayishiga yordam berar ekan. Zero, ona Vatanimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ona tuprog‘imizda yashayotgan, erkinlik havosidan nafas olayotgan yoshlarimizni har tomonlama yetuk, sog‘lom fikrli, yuksak ma’naviyatli, Konstitutsiyaviy bilimlarga ega qilib tarbiyalash har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2018 yil.
2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari geografiya darsliklari.
3. G‘ulomov P., Hasanov I., - O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. – T.: Universitet. 2002 y.
4. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A., Pardaev A.,-Ta’limda innovatsion texnologiyalar. (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste’dod. 2008.-8-b.
5. Maktab o‘lkashunosligi (ma’ruzalar matni). Tuzuvchi Z.S. Saidkarimova T., 1999.

6. O'zbekistonda geografiya ta'limi metodikasi va toponimika: tarixi, muammolari va istiqbollari 26-27 aprel, 2019 yil 44 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Entsiklopediyasi. T. O'qituvchi 1997 y.
8. Asanov G., M. Nabixonov, I. Safarov. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994 y.
9. Axmedov E.A. O'zbekiston shaharlari. Toshkent, «O'zbekiston» 2007
10. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi Toshkent 2014
11. Komilova, N., Makhmudov, B., & Latipov, N. (2023). Study of crimes in the city of Kokand using GIS technologies and sociological questionnaires. Visnyk of VN Karazin Kharkiv National University, series" Geology. Geography. Ecology", (59), 125-139.
12. Latipov, N. F., & Komilova, N. K. (2022). INDICATORS OF URBAN ENVIRONMENT ASSESSMENT AND CRITERIA FOR THEIR SELECTION. Экономика и социум, (11-1 (102)), 129-134.
13. Mukhammedova, N. J., & Koziyeva, M. S. (2024). ECONOMIC-SOCIAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF NAVBAHAR DISTRICT. World of Scientific news in Science, 2(1), 619-623.
14. Khudoyberdieva, I. Analyzing of Influential Factors for the Development of Livestock and their Significance in Navoi Region.
15. Xudoyberdiyeva, I. (2024). Navoiy viloyati qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillarning o'ri. Tabiiy fanlar, 3(2), 315-318.